



MOVAROUNNAHRDAGI ETNOMADANIY JARAYONLARDA
ARABLARNING O'RNI



Xurramov Umidjon Aliqul O'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 4-kurs talabasi

xurramovumidjon243@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Movarounnahrda kechgan etnomadaniy jarayonlarda arablarning tutgan o'rni va ularning mintaqaga migratsiya bosqichlari tahlil etilgan. Tadqiqotda arablarning ilk o'rta asrlardan boshlab Temuriylar hamda Shayboniylar davrigacha bo'lgan davriy ko'chib kelishi yozma manbalar va etno-tarixiy ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur tomonidan Iroq va Shomdan hunarmand hamda olimlarning ko'chirilishi, keyingi davrlarda Balx va Afg'oniston hududidan Zarafshon va Qashqadaryo vohalariga aholi migratsiyasining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Movarounnahr, arablar, migratsiya, Amir Temur, etnomadaniy jarayonlar, Rui Gonzales de Klavixo, "Siyosatnoma", Shayboniylar, Buxoro amirligi.*

Ma'lumki, arablarning Movarounnahrda kirib kela boshlagan ilk davridan bugungi kungacha ming yildan ortiq vaqt o'tdi. Kechgan bu davr mobaynida arablar ham o'rta osiyolik boshqa etnoslar qatori mahalliy aholining bir parchasiga aylana borib, mintaqada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda faol ishtirok etganlar.

VIII asrning birinchi yarmiga borib taqalsada, bu jarayon keyingi asrlarda ham davom etgani ma'lum. Xususan, Amir Temur davrida Arabiston yarimorolidan bir guruh arab jamoasining mintaqaga ko'chirib keltirilganligi haqida rivoyatlarning keng tarqalganligi va aholi orasida haligacha bu haqda turli-tuman hikoyalarning saqlanib qolganligi ma'lum. Yozma manbalarda ham, garchi batafsil bo'lmasada, Amir Temurning arab o'lkalaridan bir necha minglab aholini ko'chirganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur tomonidan Movarounnahrda ko'chirib keltirilgan aholi sonini bir yerda 100 ming deb ko'rsatsa, boshqa bir joyda 200 mingdan ortiq deb keltiradi. Ular orasida albatta arablar ham bo'lgan, chunki mazkur ispan elchisi, ko'chirib keltirilganlar orasida arablar, usmonli turklar va armanlarni alohida qayd etgan.

Shu o'rinda, Amir Temurning arab mamlakatlariga nisbatan tutgan siyosatiga baho beradigan bo'lsak, u o'z tuzuklarida boshqa xorijiy davlatlar qatorida, arablar yashaydigan mamlakatlar bilan ham tashqi siyosatda yaxshi qo'shnichilikda, tinch-totuv yashashning tarafdori ekanligi, ular bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy va diplomatik aloqalarni yanada yaxshilashning muhimligini qayta-qayta bayon qilgan. Sohibqiron o'z tuzuklarida uchta kengashni va "O'zga mamlakatlarni istilo etishning tuzuklari" qismlarini arab mamlakatlariga bag'ishlagan. "Qaysi mamlakatda dindan qaytishlik va xudosizlik kuchaysa" - deb ta'kidlaydi Amir Temur o'z tuzuklarida, - u diyorning aholisi,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sipotu raiyat turli maslakka kirib ittifoqlari buzilsa, u mamlakatning halokati yaqindir. Chinakam jahongir podshoh, unday yurt ustiga bosqin qilishi lozim.

Arab mamlakatlariga qarshi olib borilgan urushlarga ham aynan ana shu holatlar sababchi bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, asosan, Arabiston yarimoroli va unga qo'shni hududlar aholisining asosiy qismini qadim somiy xalqlaridan bo'lmish arablar tashkil etib, ular Iroq; (Iroqi arab), Shom (Suriya), Yaman, Hijoz, Misr va hokazo nomlar bilan yuritilgan tarixiy o'lkalarda mutloq ko'pchilikni tashkil etardilar. Faqat Amir Temur va Temuriylar davrida mazkur o'lkalarning boshqaruv jilovi, asosan, turkiy sulolalar qo'l ostida bo'lib, Misrda Mamluk sultonlari deb ataluvchi qipchoq turklari, Iroq va Shom (Suriya)da o'g'uz turklariga mansub Qoraqyunli va Oqqyunli turkman sulolalari hukm surar edilar. Shuningdek, Amir Temurning siyosat sahnasiga chiqishi arafasida arab o'lkalarining bir qismidagi aholi Iroq va g'arbiy Eron atrofidagi arablar turk- mo'g'ul urug'lariga mansub Jaloyiriylar sulolasi qo'l ostida edi. Ayni paytda arab o'lkalarini o'z hukmi ostiga olish harakatiga tushgan Usmonli turk sultonlari Iroq va Shomga tomon harakatga kelgan bir davr edi.

Darvoqe, u Usmonlilar, Jaloyiriylar va Qoraqo'yunlilarni bir yoqli qilgach, arab o'lkalaridan Iroq va Shomda o'z hukmronligini o'rnatadi hamda Misr va uning atroflaridagi arab o'lkalarida hukm surayotgan turkiy Mamluk sulolasiga ham u ustunligini qabul ettiradi.

Binobarin, mazkur sulolalar qo'l ostidagi arab o'lkalari aholisi orasida Amir Temurni xaloskor sifatida kutib olgan mahalliy toifalar ham bo'lgan. Demak,

Amir Temur qo'lga kiritilgan mamlakatlardan, shu jumladan, arab o'lkalari aholisidan bir qismini To'ron zaminga ko'chirib keltirar ekan, albatta, ular orasidan o'z yurtida hunarmand, me'mor yoki o'sha davrda xalq orasida yuqori rag'bat ko'rgan boshqa kasb egalarini alohida tanlab olishga harakat qilgan bo'lib, yuqorida ham keltirib o'tganimizdek, bu o'sha davr yozma manbalarida o'z aksini topgan. Sohibqiron o'z saltanati poytaxtida yirik bunyodkorlik ishlarini olib borish va ilm-fanni rivojlantirish maqsadida xorijlik hunarmand, me'mor va olimlarni Samarqandga keltirish davomida arablar orasidan ham bevosita shu toifadagi kishilarni tanlab olgan bo'lsa ajab emas.

Arablarning O'rta Osiyoga migratsiyasining yangi bosqichi Amir

Temur davriga to'g'ri kelib, ular, asosan, Arabiston yarimoroli va unga tutash hududlardan, xususan, Suriya va Iroqdan ko'chirib keltirilgan aholi bo'lishi ehtimoli yuqori. Demak, O'rta Osiyoga ilk o'rta asrlarda boshlangan arab migratsiyasi keyingi o'rta asrlarda ham davom etgan bo'lib, bu haqda Temuriylar davri yozma manbalari va aholi orasida saqlanib qolgan turli rivoyatlarda qiziqarli ma'lumotlar uchraydi.

Arablarning O'rta Osiyo hududida tarqalishi ming yillik bir davrni o'z ichiga olgan jarayon bo'lib, mintaqadagi siyosiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq edi. Garchand, Movarounnahrda arablarning ilk kirib kelishi bilan bog'liq tafsilotlar o'z davri manbalarida aks etgan bo'lsada, oradan o'nlab asrlar o'tishi natijasida arablarning mahalliy xalqlarga singishib ketgani bois, mintaqadagi bu davr etnomadaniy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jarayonlarida ularning aynan qay darajada o'rin tutganligini izchil ravishda kuzatish yoki bu haqda aniq tasavvurlar hosil qilish ancha mushkul,

chunki mazkur arab guruhlarida tilida afg'on tiliga xos so'zlar uchrab, bu esa ular ma'lum muddat mintaqaning janubiy hududlarida yashaganlar, degan mazmundagi fikrga turtki beradi.

Mintaqa arablarining siyosiy va etnomadaniy jarayonlarda qay darajada ishtirok etganliklarini nisbatan aniqroq va yaqqolroq kuzatish imkoniyati esa faqatgina so'nggi o'rta asrlar davri uchun xosdir. Chunki, bu davrda mintaqa arablari bilan bog'liq etnomadaniy jarayonlarni yozma manbalar orqali ham Buxoro amirligining mahalliy tarixnavislari asarlari, ham XVII - XIX asrlarda mintaqaga tashrif buyurgan rus, ingliz, fors elchi va sayyohlari esdaliklari hamda rus geograf, etnograf va sharqshunos olimlari to'plagan ma'lumotlar asosida yoritish mumkin. Bundan tashqari, bu davr nisbatan yaqin o'tmish bo'lgani bois, shu paytgacha saqlanib qolgan jonli hikoya va rivoyatlar ham bu haqda muayyan tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi.

Arablarning O'rta Osiyoning ichki regionlariga kirib kelishining navbatdagi bosqichi Temuriylar davridan keyin so'nggi o'rta asrlarga borib taqaladi.

Amudaryoni kechib o'tib, mamlakatimizning markaziy hududlarida yangi makon tuta boshlagan davri mintaqada Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Mang'itlar kabi o'zbek sulolalari hukm surgan davrga to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, arablarning mintaqa etnomadaniy jarayonlarida ishtirokining bu davrini yoritish imkoniyati nisbatan ancha qulay.

Xususan, Shayboniylar sulolasi 1513-yilda Shimoliy Xuroson va Balxni qo'lga kiritgach, ushbu sulolaga mansub o'zbek shaxzodalaridan Ubaydulla va Jonibek sultonlar tomonidan mazkur hududlardagi aholining bir qismi Movarounnahrda ko'chirganligiga doir ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan, Jonibek sultonning Balx, Shibirg'on va Andxuy aholisini o'z mulkiga tushgan Zarafshon vohasiga ko'chirganligi, ular orasida Afg'onistonlik arablar ham bo'lganini tasdiqlaydigan dalillar uchraydi.

So'nggi o'rta asrlarda O'rta Osiyodagi Buxoro, Xiva, Qo'qon kabi mavjud uch o'zbek xonligi orasida arablar eng ko'p tarqalgan hudud Buxoro bo'lgan. Xususan, ushbu xonlik (keyinchalik amirlik)ning markaziy hududlari Buxoro, Samarqand va Qashqadaryoda arablar aholining sezilarli bir qismini tashkil qilgan bo'lsa, janubiy va janubi-sharqiy hududlar Surxon vohasi, Ko'lob va Shimoliy Afg'onistonda ham ularning miqdori anchagina bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Rajabov.R. O'zbekistondagi arablar tarixi va etnografiyasi-T.Sharq.2012-98.b
2. Bosvort K.E. Musulmon sulolalari. Tarjimonlar O. Sharafiddinov, A. Samad. - T.: Fan, 2007. - 88-bet.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

3. Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. - T.: Yangi nashr, 2011. - 204-205-betlar.
4. Волин С.А. К истории среднеазиатских арабов // Сб. Труды второй сессии ассоциации арабистов.-М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1941.-С. 126.
5. Шпажников Г.А. Религии стран Западной Азии. Справочник. - М.: Наука, 1976.-С. 197.
6. Семенов А.А. Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское Востоковедение. V. - М.-Л., 1948.-С. 142.
7. Bosvort K.E. Musulmon sulolalari. Tarjimonlar O. Sharafiddinov, A. Samad. - T.: Fan, 2007. - 88-bet.

